


# JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- aprel holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar- mart oylarida)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda)







Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **36,3** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarida xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliqchilik xo‘jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,4 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**138**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**3 357**

Ishlab chiqarish sanoati

**14**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**41**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 522 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,4 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 125,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 107,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 140,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning o'zgarmay qolishi (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) kuzatildi.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,4** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**8,3** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**11,7** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar




**60,0** foizga oshdi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar




**0,2** foizga kamaydi






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 1 638 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 733 taga yoki 181,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 470 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 632 taga yoki 175,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 210 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86 taga yoki 169,4 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 12 646 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 872 taga yoki 129,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 991 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 595 taga yoki 127,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 894 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 236 taga yoki 135,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra 221 tani tashkil etib, ulardan 214 tasi yoki 96,8 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 27 taga yoki 114,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



99

yashash bo'yicha xizmatlar



1 190

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 339 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,8 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 115,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,3 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 112,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,7 %) o'sishidir.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>70</b>	<b>90</b>	<b>144</b>	<b>192</b>	<b>214</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	3	10	25	31	39
<b>Sanoat</b>	57	64	81	105	115
<b>Qurilish</b>	2	3	6	9	9
<b>Savdo</b>	3	7	18	24	30
<b>Tashish va saqlash</b>	2	2	4	5	5
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	-	-	4	5	3
<b>Axborot va aloqa</b>	1	1	2	3	3
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	-	-	-	1	2
<b>Boshqa turlar</b>	2	3	4	9	8

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

■ O'sish sur'ati ■ 2021- y. ■ 2020- y.



# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>214</b>	<b>138</b>	<b>76</b>
<b>Jizzax shahri</b>	69	48	21
<b>tumanlar:</b>			
<b>Arnasoy</b>	7	5	2
<b>Baxmal</b>	9	6	3
<b>G'allaorol</b>	21	14	7
<b>Sharof Rashidov</b>	21	12	9
<b>Do'stlik</b>	3	1	2
<b>Zomin</b>	16	8	8
<b>Zarbdor</b>	4	3	1
<b>Zafarobod</b>	10	3	7
<b>Mirzacho'l</b>	4	2	2
<b>Paxtakor</b>	8	7	1
<b>Forish</b>	28	22	6
<b>Yangiobod</b>	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 69 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 32,2 %), Forish tumanida 28 ta (13,1 %), Sharof Rashidov tumanida 21 ta (9,8 %), G'allaorol tumanida 21 ta (9,8 %), Zomin tumanida 16 ta (7,5 %), Yangiobod tumanida 13 ta (6,1 %) hamda Zafarobod tumanlarida 10 ta (4,7 %) ni tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (28,9 %), Sharof Rashidov (15,5 %), G'allaorol (8,3 %), Zomin (7,9 %), Forish (7,1 %), Baxmal (6,0 %), Zarbdor (4,9 %), Paxtakor (4,4 %), Do'stlik (4,3 %), Mirzacho'l (3,8 %), Arnasoy (3,4 %), Zafarobod (3,1 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)


2021-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (26,2 %), Sharof Rashidov (14,2 %), G'allaorol (10,2 %), Zomin (9,4 %), Forish (7,6 %), Baxmal (7,0 %), Paxtakor (4,5 %), Zarbdor (4,3 %), Arnasoy (4,0 %), Mirzacho'l (3,5 %), Do'stlik (3,4 %), Zafarobod (2,1 %) va Yangiobod (2,1 %) tumanlari ulushiga ega.





# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Jizzax shahrida (35,2 %), Sharof Rashidov (19,4 %), Zomin (6,7 %), Baxmal (6,0 %), G'allaorol (5,6 %), Forish (5,4 %) Zarbdor (4,5 %), Do'stlik (4,4 %), Arnasoy (3,3 %), Mirzacho'l (3,0 %), Paxtakor (2,9 %), Zafarobod (1,9 %) va Yangiobod (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021- yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning mart oyida, birlikda)




2021- yil yanvar-mart oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (33,8 %), G'allaorol (23,8 %), Sharof Rashidov (13,8 %), Paxtakor (10,5 %), Mirzacho'l (4,8 %), Zarbdor (4,3 %), Zomin (3,3 %), Baxmal (2,9 %), Do'stlik (1,9 %), Zafarobod (0,5 %), Forish (0,5 %) tumanlari ulushni qayd etadi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: 72 221-51-24**